

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA DIREKTORLARNING BOSHQARUV MADANIYATINI STRATEGIK BOSHQARUV TEXNOLOGIYASINING AFZALLIKLARI

Abduraxmonova Xurshida G'ofurovna

*Toshkent shaxar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi inson resurslarini
boshqarish va rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi*

Annotasiya: Maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning intellektual, ijtimoiy, jismoniy va hissiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu tizimning samarali boshqaruvi ta'lim sifatini oshirish va bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun zarurdir. Mazkur maqolada xorijiy tajribalar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbar boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Boshqaruv kompetensiyalari, maktabgacha ta'lim, xorijiy tajriba, innovatsion liderlik, strategik rejalashtirish, raqamli boshqaruv va boshqalar.

Аннотация: Система дошкольного образования является важной вехой в интеллектуальном, социальном, физическом и эмоциональном развитии детей. Эффективное управление этой системой необходимо для повышения качества образования и обеспечения всестороннего развития детей. В данной статье анализируются вопросы развития компетенций руководителя в дошкольных образовательных организациях на основе зарубежного опыта.

Ключевые слова: управленческие компетенции, Дошкольное образование, зарубежный опыт, инновационное лидерство, стратегическое планирование, цифровое управление и др.

Annotation: The preschool education system is an important milestone in the intellectual, social, physical and emotional development of children. Effective management of this system is necessary to improve the quality of education and ensure the comprehensive development of children. This article analyzes the issues of developing the competencies of managers in preschool educational organizations based on foreign experience.

Keywords: managerial competencies, Preschool education, foreign experience, innovative leadership, strategic planning, digital management, etc.

Jahon miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy sohalarda olib borilayotgan global o'zgarishlar rahbar kadrlar tayyorlash tizimini yangicha talablar asosida

takomillashtirishni taqozo etmoqda. Boshqaruv hamda kasbiy faoliyat mazmuni, talablari, xarakteri va yo'nalishlarining takomillashib borishi rahbar kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi oldiga yangi (andragogik, evtagogik) paradigmalarni joriy etish hamda kompetensiyaviy yondashuvlarni talab etmoqda. Yevropa Kengashining "Yevropa uchun asosiy kompetensiyalar" (Key Competences for Europe) mavzusidagi simpoziumida ana shu haqda ta'kidlab o'tilgan. Shu bois, rahbarlarining boshqaruv qobiliyatlarini kompetentlilik nuqtayi nazaridan rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda malaka oshirish tizimini globallashtirish sharoitlariga moslashtirish orqali rahbar kadrlarining boshqaruv salohiyatini rivojlantirish, o'quv jarayonlarida "Interactive professionalism" kabi interfaol imkoniyatlardan foydalanish, o'quvmetodik resurslarni shakllantirish, ta'lim sifatini oshiruvchi mexanizimlarni yaratish, malaka oshirish sohasiga ta'limni yangi shakllarini(norasmiy, informal) joriy etish orqali boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'limda boshqaruv samaradorligi rahbarning boshqaruv kompetensiyalari, boshqaruv faoliyatida rejalashtirish, tashkil etish, o'qitish, tarbiyalash, muvofiqlashtirish, motivlashtirish, hisob va nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Shu bois, malaka oshirishda androgogika va evtagogikaga xos ta'lim jarayonini tashkil etish orqali uzluksiz ta'lim olish hamda kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ilmiytadqiqotlarni olib borish dolzarb ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar uzluksiz ta'lim tizimining barcha darajalari faoliyatlarini modernizatsiyalashga qaratilgan. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish hamda maktabgacha ta'lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish kabi vazifalar ko'zda tutilgan. Bu esa, boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish modellarini Angliya, Germaniya, Yaponiya, Italiya kabi davlatlarning tajribalarini o'rganish asosida takomillashtirish va rahbarning boshqaruv kompetensiyalarni rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarni qo'llashning dolzarbligini ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'limning yangi sifati nafaqat uning mazmuni, balki ta'lim tashkilotini boshqaradigan rahbarning boshqaruv mahorati, boshqaruv kompetensiyasiga ega ekanligi, shaxsiy sifatleri, yangi bilimlarni va innovatsiyalarni tatbiq etishga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Albatta, bu jarayon malaka oshirish sifatini tubdan yangilashga, malaka oshirish tizimiga yangi innovatsion ta'lim texnologiyalari va variativ dasturlarni

joriy qilishni taqozo etadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimi rahbar kadrlari uchun zaruriy kompetensiya talablarini ishlab chiqish talab etiladi.

Strategik boshqaruv texnologiyasi — bu tashkilotning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan va tizimli boshqaruv yondashuvidir. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari kontekstida bu texnologiya rahbarlarga tashkilotni samarali boshqarish, o'zgaruvchan tashqi va ichki muhitga moslashish, sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish imkonini beradi.

Yani, tashkilotning uzoq muddatli maqsadlarini belgilash, rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarning boshqaruv madaniyatini shakllantirishda strategik boshqaruv texnologiyasi: ta'rifi va mohiyati shundan iboratki, strategik boshqaruv texnologiyasi — bu tashkilotning uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun tashqi va ichki muhit tahlilidan foydalanib, aniq strategiyalarni ishlab chiqish, resurslarni samarali taqsimlash, va amalga oshirish jarayonini monitoring qilishni o'z ichiga olgan boshqaruv tizimidir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarning boshqaruv madaniyatini shakllantirishda asosiy bosqichlari va vaziyat tahlili (diagnostika)

Tashqi muhit tahlili: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik omillar (PEST-analiz).

Ichki muhit tahlili: resurslar, kadrlar salohiyati, moddiy-texnik baza.

SWOT-tahlil orqali tashkilotning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlash.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarning boshqaruv madaniyatini shakllantirishda strategik maqsadlarni belgilash

Missiya va viziyaning ishlab chiqish;

Strategik maqsadlar va ustuvor yo'nalishlarni belgilash (masalan: ta'lim sifatini oshirish, innovatsion metodlarni joriy qilish).

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarning boshqaruv madaniyatini shakllantirishda strategiyani ishlab chiqish

Uzoq, o'rta va qisqa muddatli strategiyalar;

Tashkiliy tuzilmani moslashtirish;

Innovatsion loyihalar rejasini tuzish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarning boshqaruv madaniyatini shakllantirishda strategiyani amalga oshirish

Rejalarni amaliyotga joriy etish;

Xodimlarni jalb qilish, motivatsiya tizimini yaratish;

Resurslarni taqsimlash.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarning boshqaruv madaniyatini shakllantirishda monitoring va baholash

Strategiyaning bajarilishini nazorat qilish;

Natijalarni tahlil qilish;

Zarurat tug'ilganda strategiyani qayta ko'rib chiqish va moslashtirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida strategik boshqaruv texnologiyasining afzalliklari

Afzallik	Ta'rif
Maqsadga yo'naltirilganlik	Harakatlar bir butun strategik rejaga asoslangan bo'ladi
Tahliliy yondashuv	Qarorlar muhit tahliliga asoslanadi
Moslashuvchanlik	O'zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladi
Jamoaviylik	Jamoaning barcha a'zolari jarayonga jalb qilinadi
Sifat oshishi	Ta'lim sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan

Rasm-1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida strategik boshqaruv texnologiyasining afzalliklari

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarning boshqaruv madaniyatini shakllantirishda loyihaviy boshqaruv texnologiyasi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarning boshqaruv madaniyatini shakllantirishda muayyan muammoni hal qilish yoki yangilik joriy etish maqsadida vaqtinchalik loyiha asosida ishlash.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hamdamova M.T. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagog- tarbiyachilarning innovatsion faoliyatini rivojlantirish omili sifatida rahbarning boshqaruv kompetençiyasi "Mug'allim xem uzliksiz bilimlendirio", ilmiy-metodikalık jurnal, №4, Nekis-2019, ISSN 2181-7138, 123-126 b

2. Hamdamova M.T. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining kompetensiyasi «Maktabgacha ta'lim: zamonaviy yondashuv va xalqaro tajriba» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2024, materiallar to'plami

4. Ravshanova, N. N. (2023). Designing Modern Models of Biological Education Theories and Content in Educators. *Telematique*, 22(01), 3034-3040.
5. Morozova Anjela Nikolayevna. Upravleniye metodicheskoy rabotoy v doshkolnom obrazovatelnom uchrejdenii na diagnosticheskoy osnove : Dis. ... kand. ped. nauk : 13.00.07 : Moskva, 2000
6. Вебер М. Протестантская этика и дух капитализма ISBN: 978-5-17-160209-3 2023 г. 320 с.
8. Norboyevna R.N., Shukurullaev A.O. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ekologik teatrni tashkil etish orqali ekologik konseptual asoslarini shakllantirish. // *Inter education & global study*. 2024. №7. B.122–128.
9. Ravshanova, N. N. (2025). REFLEKSIYA BO 'LAJAK O 'QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATIDA MUHIM SIFATI. *Inter education & global study*, (1), 362-370.